EKOLOGIYAGA OID NEOLOGIZMLARNING PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Rahimova Mohinur Qaxramon qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, tayanch doktorant
mohinurrahimova69@gmail.com, tel.: +99897 412 96 92
ORCID: 0009-0000-0318-9011

Annotatsiya. *Maqolada ekologiyaga oid inglizcha neologizmlarning pragmalingvistik xususiyatlari va ularning ekologik diskursdagi kommunikativ vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ekologik neologizmlarning asosiy pragmatik funksiyalarini aniqlash hamda til va ekologik ong o'rtasidagi munosabatni ilmiy izohlashdan iborat. Ishda tizimli yondashuv, tavsifiy-tahliliy, kontekstual va pragmatik tahlil usullaridan foydalanildi; tahlil uchun maqolada keltirilgan ekologik mazmundagi inglizcha neologizmlar va ularning izohlari asos qilib olindi. Tadqiqot miqdoriy korpus tahliliga da'vo qilmaydi, shu sababli natijalar sifat tavsifi doirasida bayon etilgan. Tahlil jarayonida o'n bir ekologik neologizm funksional jihatdan guruhlandi va kontekstga bog'liq holda talqin qilindi. Natijalarga ko'ra, ekologik neologizmlar to'rtta asosiy pragmatik funksiyani bajaradi: axborot berish, baholash-qiymat berish, identifikatsiyalash va ta'sir etish. Bu funksiyalar bir-biridan uzilgan emas: bitta birlik muayyan kontekstda bir necha vazifani birdaniga amalga oshirishi mumkin, ularning namoyon bo'lishi esa matn janri, kommunikativ maqsad va auditoriyaning oldingi bilimlariga bog'liq. Xulosa qilinganda, ekologik neologizmlar yangi tushunchalarni nomlabgina qolmay, ekologik voqelikni konseptuallashtirish, unga munosabat shakllantirish va auditoriya xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *neologizm, ekologik diskurs, pragmalingvistika, kognitiv yondashuv, ekosentrizm, lingvistik prognozlash, lingvoekologiya, konseptuallashtirish, media-diskurs, aksiologiya.*

PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF ECOLOGICAL NEOLOGISMS

Abstract. *The article analyses the pragmalinguistic features of English ecological neologisms and their communicative functions in ecological discourse. The aim of the study is to identify the main pragmatic functions of ecological neologisms and to explain the relationship between language and ecological awareness. The research employs the systemic approach together with descriptive-analytical, contextual and pragmatic analysis; the material consists of the English ecological neologisms cited in the article and their definitions. The study makes no claim to*

quantitative corpus analysis, so the results are presented as a qualitative, functional-pragmatic interpretation. In the course of the analysis, eleven ecological neologisms were grouped by function and interpreted in context. The findings show that ecological neologisms perform four main pragmatic functions: informing, evaluation, identification and influencing. These functions are not isolated from one another: in a given context a single unit may realise several of them at once, and their manifestation depends on text genre, communicative purpose and the audience's prior knowledge. It is concluded that ecological neologisms not only name new concepts but also serve as a means of conceptualising ecological reality, shaping attitudes to it and influencing the audience's behaviour.

Keywords: *neologism, ecological discourse, pragmalinguistics, cognitive approach, ecocentrism, linguistic forecasting, ecolinguistics, conceptualization, media discourse, axiology.*

ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ НЕОЛОГИЗМОВ

Аннотация. *В статье анализируются прагмалингвистические особенности английских экологических неологизмов и их коммуникативные функции в экологическом дискурсе. Цель исследования – выявить основные прагматические функции экологических неологизмов и объяснить взаимосвязь между языком и экологическим сознанием. В работе использованы системный подход, описательно-аналитический, контекстуальный и прагматический анализ; материалом послужили приведённые в статье английские экологические неологизмы и их толкования. Исследование не претендует на количественный корпусный анализ, поэтому результаты изложены как качественная функционально-прагматическая интерпретация. В ходе анализа одиннадцать экологических неологизмов были сгруппированы по функциям и интерпретированы в контексте. Результаты показывают, что экологические неологизмы выполняют четыре основные прагматические функции: информативную, оценочную, идентификационную и воздействующую. Эти функции не изолированы друг от друга: в определённом контексте одна единица может реализовывать сразу несколько из них, а их проявление зависит от жанра текста, коммуникативной цели и фоновых знаний аудитории. Сделан вывод, что экологические неологизмы не только называют новые понятия, но и служат средством концептуализации экологической действительности, формирования отношения к ней и воздействия на поведение аудитории.*

Ключевые слова: *неологизм, экологический дискурс, прагмалингвистика, когнитивный подход, экоцентризм, лингвистическое прогнозирование, эколингвистика, концептуализация, медиадискурс, аксиология.*

KIRISH

Zamonaviy dunyoda ekologik muammolarning globallashuvi va keskinlashuvi kuzatilmoqda. Iqlim o‘zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi va biologik xilma-xillikning qisqarishi kabi jarayonlar ekologiyaga oid tushunchalarning jamoatchilik muhokamasida faol qo‘llanishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada ekologik hodisa, jarayon va munosabatlarni nomlovchi yangi leksik birliklar – ekologik neologizmlar paydo bo‘lmoqda.

Ekologik neologizmlarni o‘rganish jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning til tizimida qanday aks etishini, insonning atrof-muhitga munosabati qanday ifodalanishini hamda ekologik ongning shakllanishida til birliklari qanday ishtirok etishini aniqlash imkonini beradi. Bunday birliklar faqat yangi tushunchalarni nomlash bilan cheklanmaydi: ular muayyan hodisaga baho berishi, ijtimoiy guruhlarni farqlashi va auditoriyaning xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Pragmalingvistika til birliklarini real kommunikativ vaziyatda qo‘llanishi, so‘zlovchi maqsadi va tinglovchi yoki o‘quvchiga ko‘rsatadigan ta’siri nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Shu jihatdan ekologik neologizmlarning pragmatik imkoniyatlarini tadqiq etish til, jamiyat va ekologiya o‘rtasidagi aloqalarni yoritishda muhimdir. V. V. Katermina neologizmlarning kognitiv-pragmatik xususiyatlariga e’tibor qaratib, yangi birliklar voqelikni anglash va qayta konseptuallashtirish jarayonida ishtirok etishini ta’kidlaydi [1, 84–90].

Mavjud tadqiqotlarda ekologik neologizmlarning kognitiv va media-diskurs jihatlari yoritilgan bo‘lsa-da [1; 2; 4], ularning pragmatik funksiyalarini tizimli ajratish, funksiyalarning o‘zaro bog‘liqligi hamda kontekstga bog‘liqligini aniqlash masalasi qo‘shimcha tadqiqotni talab etadi. Aynan shu masala maqolada o‘rganilmagan muammo sifatida ko‘riladi.

Tadqiqotning maqsadi ekologik neologizmlarning pragmalingvistik xususiyatlarini tavsiflash, ularning ekologik diskursdagi asosiy kommunikativ funksiyalarini aniqlash hamda til va ekologik ong o‘rtasidagi munosabatlarni ilmiy jihatdan izohlashdan iborat. Maqolaning asosiy vazifalari ekologik neologizmlar haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish, ularning pragmatik funksiyalarini misollar asosida tahlil qilish va olingan kuzatishlarni xulosalashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlar tahlili

Ekologik neologizmlarni o'rganish neologiya, pragmalingvistika va ekolingvistika yo'nalishlarining kesishuvida amalga oshiriladi. Neologiyaning umumiy muammolari S. I. Alatortseva [5] va V. I. Zabotkina [6] ishlarida yoritilgan; xususan, V. I. Zabotkina inglizcha yangi leksikani tahlil qilib, neologizmlarning jamiyatdagi yangi hodisalar va guruhlarni nomlashdagi roliga e'tibor qaratadi [6]. So'z yasalishining leksik o'zgarishdagi o'rni D. Crystal tomonidan ko'rib chiqilgan [10].

Neologizmlarning pragmatik jihatlari bir qator tadqiqotlarda yoritilgan. V. V. Katermina ekologik diskursdagi inglizcha neologizmlarning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini o'rganib, yangi birliklar voqelikni anglash va qayta konseptuallashtirishda ishtirok etishini ta'kidlaydi [1]. A. V. Yaremchuk zamonaviy media-diskursda neologizmlarning pragmatik funksiyalarini tahlil qiladi [2]. Neologizmlarning ijtimoiy-pragmatik xususiyatlari N. B. Pardayeva tomonidan ingliz va o'zbek tillari materialida ko'rib chiqilgan [3], A. Guslyakova va hammualliflar esa "yashil neologiya"ning ekologik ta'limdagi rolini media-diskurs yondashuvi asosida yoritgan [4].

Til va ekologiya munosabati ekolingvistik ishlarda alohida o'rganiladi. M. A. K. Halliday tilning ekologik masalalarni ifodalashdagi roliga e'tibor qaratadi [9], A. Goatly esa grammatik va metaforik vositalarning voqelikni muayyan tarzda talqin qilishga ta'sirini ko'rsatadi [11]. Ekolingvistik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari S. V. Ionova ishida umumlashtirilgan [8], til va inson olami o'rtasidagi aloqa masalasi esa N. D. Arutyunova asarida yoritilgan [7].

Mazkur manbalar ekologik neologizmlarni faqat yangi lug'aviy birlik sifatida emas, balki ekologik voqelikni konseptuallashtirish va unga munosabat bildirish vositasi sifatida o'rganish uchun nazariy asos yaratadi.

Metodlar

Tadqiqotda tizimli yondashuv, tavsifiy-tahliliy, kontekstual va pragmatik tahlil usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv ekologik neologizmlarni til, jamiyat va ekologik diskurs munosabatlari doirasida ko'rib chiqishga xizmat qildi. Tavsifiy-tahliliy usul yordamida ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy qarashlar umumlashtirildi. Kontekstual va pragmatik tahlil esa misollarning kommunikativ vazifasi, baholash mazmuni hamda auditoriyaga ehtimoliy ta'sirini izohlashda qo'llanildi.

Tahlil uchun maqolada keltirilgan ekologik mazmundagi inglizcha neologizmlar va ularning izohlari asos qilib olindi. Tadqiqot miqdoriy korpus tahliliga da'vo qilmaydi; shu sababli natijalar sifat tavsifi va funksional-pragmatik talqin doirasida bayon etiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ekologik neologizmlar ekologik voqelikdagi yangi hodisa va tushunchalarni nomlash bilan birga, ularning jamiyat tomonidan idrok etilishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Neologizmlarning paydo bo'lishi ichki til imkoniyatlari va boshqa tillardan o'zlashish jarayonlari bilan bog'liq. A. V. Yaremchuk neologizmlarni kelib chiqish manbasiga ko'ra, umumiy tarzda, tilning ichki resurslari asosida shakllangan va boshqa tillardan o'zlashgan birliklar sifatida farqlaydi [2, 66–76]. Ushbu tasnif ekologik neologizmlarni tahlil qilishda ham qo'llanishi mumkin, biroq har bir birlikning aynan ekologik mazmun kasb etishi uning qo'llanish konteksti orqali aniqlanishi lozim.

Ichki til resurslari asosida yangi birliklar so'z yasash, qo'shma shakllar hosil qilish yoki mavjud birliklarga yangi ma'no yuklash orqali yuzaga kelishi mumkin. O'zlashma neologizmlar esa xalqaro ekologik muloqot, ilmiy-texnik taraqqiyot va media almashinuvi natijasida tilga kirib keladi. Har ikki holatda ham yangi birlikning pragmatik qiymati uning lug'aviy ma'nosigina emas, balki muayyan diskursda qanday maqsadda qo'llanishi bilan belgilanadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, ekologik neologizmlarning pragmatik funksiyalarini to'rt guruhga ajratish mumkin: axborot berish, baholash-qiymat berish, identifikatsiyalash va ta'sir etish. Tahlil qilingan birliklarning funksiyalar bo'yicha taqsimlanishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Ekologik neologizmlarning pragmatik funksiyalari bo'yicha tahlil qilingan misollari

Pragmatik funksiya	Neologizm	Izohi
Axborot berish	*garbology*	chiqindilar va maishiy axlatni o'rganish bilan bog'liq yo'nalish
	climate-smart	iqlim o'zgarishi sharoitiga moslashish yoki uning salbiy oqibatlarini kamaytirishga yo'naltirilgan yondashuv
	eco-score	mahsulotning ekologik ta'sirini baholashga xizmat qiluvchi ko'rsatkich yoki reyting tizimi
Baholash-qiymat berish	*eco-freak*	ekologik masalalarga haddan tashqari berilgan shaxs (baho kinoyaviy yoki tanqidiy bo'lishi mumkin)

Pragmatik funksiya	Neologizm	Izohi
	greenflation	yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik siyosat xarajatlari fonida narxlarning oshishi
	green swan	iqlim o'zgarishi kabi ekologik xatarlar sabab moliya tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, oldindan to'liq bashorat qilish qiyin xavf
Identifikatsiyalash	*locavore*	mahalliy hududda yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishga ustuvor ahamiyat beruvchi shaxs
	green laird	ekologik maqsadlarda yer sotib oluvchi yoki yerdan tabiatni muhofaza qilish yo'lida foydalanuvchi shaxs
Ta'sir etish	*carbon pawprint*	uy hayvonini saqlash bilan bog'liq faoliyatning uglerod chiqindilariga ta'siri
	eco-anxiety	ekologik inqiroz va iqlim o'zgarishi haqidagi xavotir yoki ruhiy bezovtalik
	eco-aisle	savdo muhitida ekologik xususiyatga ega mahsulotlar joylashtirilgan bo'lim yoki qator

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Axborot berish funksiyasi

Axborot berish funksiyasi ekologik neologizmlarning yangi ekologik tushuncha, hodisa yoki jarayonni nomlash va u haqda ma'lumot yetkazish vazifasida namoyon bo'ladi. Masalan, garbology – chiqindilar va maishiy axlatni o'rganish bilan bog'liq yo'nalish; climate-smart – iqlim o'zgarishi sharoitiga moslashish yoki uning salbiy oqibatlarini kamaytirishga yo'naltirilgan yondashuv; eco-score – mahsulotning ekologik ta'sirini baholashga xizmat qiluvchi ko'rsatkich yoki reyting tizimi. Ushbu birliklar murakkab ekologik mazmunni ixcham shaklda ifodalab, auditoriyaga yangi tushunchalarni anglashda yordam beradi.

Axborot funksiyasi oddiy ma'lumot uzatish bilan cheklanmaydi. Ekologik neologizm muayyan hodisani alohida konsept sifatida ajratib ko'rsatadi va shu orqali

o‘quvchining ekologik voqelik haqidagi bilim doirasini kengaytiradi. Katerminaning fikrlariga ko‘ra, ekologik neologizmlar auditoriyaga hodisa haqida xabar berish bilan birga, uning mazmunini idrok etish va unga munosabat bildirish jarayonida ham ishtirok etadi [1].

Baholash-qiymat berish funksiyasi

Baholash-qiymat berish funksiyasi ekologik neologizmlarda muayyan hodisa, jarayon yoki xatti-harakatga ijobiy yoxud salbiy munosabat bildirilishida ko‘rinadi. Bunday birliklar ekologik diskursning aksiologik qatlamini shakllantiradi: ular ekologik jihatdan maqbul yoki nomaqbul deb talqin qilinayotgan holatlarni nomlaydi va baholaydi.

Masalan, eco-freak birligi ekologik masalalarga haddan tashqari berilgan shaxsni ifodalashi mumkin; biroq uning bahosi kontekstga qarab kinoyaviy yoki tanqidiy tus oladi. Greenflation termini yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik siyosat bilan bog‘liq xarajatlar fonida narxlarning oshishini ifodalash uchun qo‘llanadi. Green swan esa iqlim o‘zgarishi kabi ekologik xatarlar sabab moliya tizimida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jiddiy va oldindan to‘liq bashorat qilish qiyin bo‘lgan xavfni anglatadi. Demak, ushbu birliklarning baholovchi kuchi faqat lug‘aviy tarkibiga emas, balki matnning umumiy mazmuni va muallif pozitsiyasiga ham bog‘liq.

Baholash komponenti ekologik muammolarni jamoatchilik uchun ahamiyatli masala sifatida taqdim etadi. Shu sababli ekologik neologizmlar media matnlarida axborot berish bilan bir qatorda, muayyan ekologik siyosat, iste’mol odati yoki ijtimoiy xatti-harakatga nisbatan munosabatni shakllantirish vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Identifikatsiyalash funksiyasi

Identifikatsiyalash funksiyasi muayyan ijtimoiy guruh, ekologik qarash yoki xatti-harakat turini nomlash va farqlash bilan bog‘liq. Ekologik neologizmlar orqali jamiyatdagi ekologik faollik shakllari, iste’mol odatlari va muayyan turmush tarziga mansublik ifodalanishi mumkin.

Masalan, locavore mahalliy hududda yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilishga ustuvor ahamiyat beradigan shaxsni anglatadi. Green laird atamasi esa ekologik maqsadlarda yer sotib oluvchi yoki yerdan tabiatni muhofaza qilish yo‘lida foydalanishga intiluvchi shaxsga nisbatan ishlatiladi. Bu birliklar muayyan ekologik qadriyat va amaliyot bilan bog‘liq guruh yoki shaxslarni tavsiflashga xizmat qiladi.

Identifikatsiyalash funksiyasi til birliklarining ijtimoiy tasniflash imkoniyati bilan bog‘liq. V. I. Zabotkina neologizmlarning jamiyatdagi yangi hodisalar va guruhlarni nomlashdagi roliga e’tibor qaratadi [6]. Ekologik diskursda bunday birliklar ekologik

faollik shakllarini ko'rinadigan qiladi, biroq ularning aniq ijtimoiy mazmuni qo'llanish konteksti asosida belgilanadi.

Ta'sir etish funksiyasi

Ta'sir etish funksiyasi ekologik neologizmlarning auditoriya munosabati, qarori yoki xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Bu vazifa, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, reklama, ijtimoiy tarmoqlar va ekologik targ'ibot matnlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Masalan, carbon pawprint birligi uy hayvonini saqlash bilan bog'liq faoliyatning uglerod chiqindilariga ta'sirini ifodalash uchun qo'llanadi. Eco-anxiety ekologik inqiroz va iqlim o'zgarishi haqidagi xavotir yoki ruhiy bezovtalikni anglatadi. Eco-aisle esa savdo muhitida ekologik xususiyatga ega mahsulotlar joylashtirilgan bo'lim yoki qatorni ifodalashi mumkin. Ushbu birliklar ekologik masalalarni kundalik hayot, iste'mol va shaxsiy mas'uliyat bilan bog'laydi.

Ta'sir etish funksiyasi neologizmning o'zidan avtomatik ravishda kelib chiqmaydi. Uning kuchi matn janri, kommunikativ vaziyat, muallif maqsadi va auditoriyaning oldingi bilimlariga bog'liq. Masalan, eco-anxiety atamasi bir matnda ekologik xavotirni xolis tasvirlashi, boshqa matnda esa ekologik muammolarga e'tibor qaratishga undovchi vosita bo'lishi mumkin. Shunday qilib, pragmatik ta'sir birlikning ma'nosi va uning diskursdagi qo'llanishi o'zaro munosabatida yuzaga keladi.

Funksiyalarning o'zaro bog'liqligi

Umuman olganda, ekologik neologizmlarning to'rtta funksiyasi bir-biridan mutlaqo uzilgan hodisalar emas. Bitta neologizm muayyan kontekstda bir vaqtning o'zida axborot berishi, baho ifodalashi, ijtimoiy guruhni identifikatsiyalashi va auditoriyaga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois ularni tasniflashda birlikning lug'aviy ma'nosi bilan birga, matndagi kommunikativ vazifasini ham hisobga olish zarur.

Ekologik neologizmlarning pragmatik imkoniyatlari ekolingvistik qarashlar bilan hamohangdir. M. A. K. Halliday tilning ekologik masalalarni ifodalashdagi roliga e'tibor qaratadi [9]. A. Goatly esa grammatik va metaforik vositalarning voqelikni muayyan tarzda talqin qilishga ta'sirini ko'rsatadi [11]. Ushbu qarashlar ekologik neologizmlarni faqat yangi lug'aviy birlik sifatida emas, balki ekologik voqelikni konseptuallashtirish va unga munosabat bildirish vositasi sifatida o'rganish lozimligini asoslaydi.

XULOSA

Tahlil ekologik neologizmlar zamonaviy jamiyatda ekologik muammolar, qadriyatlar va xatti-harakatlarni ifodalashda muhim lingvistik vosita ekanini ko'rsatadi. Ular yangi ekologik tushunchalarni nomlash bilan birga, ekologik voqelikning jamoatchilik ongida shakllanishi va talqin qilinishida ham ishtirok etadi.

Maqolada ekologik neologizmlarning to‘rtta asosiy pragmatik funksiyasi – axborot berish, baholash-qiymat berish, identifikatsiyalash va ta’sir etish funksiyalari ajratib ko‘rsatildi. Axborot berish funksiyasi yangi tushunchalarni ommalashtirsa, baholash funksiyasi ekologik hodisalarga munosabat bildirishga xizmat qiladi. Identifikatsiyalash funksiyasi ekologik qarash va amaliyotlarni nomlaydi, ta’sir etish funksiyasi esa auditoriyaning ekologik ongiga va xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatish imkonini yaratadi.

Mazkur funksiyalar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning namoyon bo‘lishi neologizmning kontekstdagi qo‘llanishi, matn janri va kommunikativ maqsad bilan belgilanadi. Shuning uchun ekologik neologizmlarni pragmalingvistik jihatdan o‘rganishda leksik ma’no, baholash komponenti, ijtimoiy-madaniy kontekst va auditoriyaga ta’sir mexanizmlarini birgalikda tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Kelgusida ekologik neologizmlarning turli janrdagi media matnlarida qo‘llanishini qiyosiy o‘rganish, ularning ingliz va o‘zbek tillaridagi pragmatik mosliklarini aniqlash hamda tarjimada yuzaga keladigan ma’no va ta’sir tafovutlarini tahlil qilish ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni yanada kengaytirishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Катермина В. В. Когнитивно-прагматический аспект английских неологизмов в экологическом дискурсе // Вестник Челябинского государственного университета. – 2022. – № 9 (467). – С. 84–90. (Katermina V. V. Cognitive-pragmatic aspect of English neologisms in ecological discourse // Bulletin of Chelyabinsk State University. – 2022. – No. 9 (467). – P. 84–90.)

2. Yaremchuk A. V. The Pragmatic Function of Neologisms in the Modern Russian Media Discourse // Philology: Scientific Researches. – 2024. – Vol. 12. – P. 66–76.

3. Pardayeva N. B. Socio-pragmatic Features of Neologisms in English and Uzbek // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2025. – Vol. 13, Issue 1. – P. 52–54.

4. Guslyakova A., Valeeva N., Vatkova O. “Green Neology” and Its Role in Environmental Education (A Media Discourse Approach) // E3S Web of Conferences. – 2020. – Vol. 169. – Article 05004.

5. Алаторцева С. И. Проблемы неологии и русская неография: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – СПб., 1999. – 40 с. (Alatortseva S. I. Problems of neology and Russian neography: abstract of Dr. Sci. (Philology) dissertation. – St. Petersburg, 1999. – 40 p.)

6. Заботкина В. И. Новая лексика современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1989. – 126 с. (Zabotkina V. I. New vocabulary of modern English. – Moscow: Vysshaya shkola, 1989. – 126 p.)

7. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 896 с. (Arutyunova N. D. Language and the world of man. – Moscow: Languages of Russian Culture, 1999. – 896 p.)

8. Ионова С. В. Основные направления эколингвистических исследований: зарубежный и отечественный опыт // Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 2: Языкознание. – 2010. – № 1 (11). – С. 86–93. (Ionova S. V. Main directions of ecolinguistic research: foreign and domestic experience // Bulletin of Volgograd State University. Series 2: Linguistics. – 2010. – No. 1 (11). – P. 86–93.)

9. Halliday M. A. K. New Ways of Meaning: The Challenge to Applied Linguistics // The Ecolinguistics Reader: Language, Ecology and Environment / ed. by A. Fill, P. Mühlhäusler. – London; New York: Continuum, 2001. – P. 175–203.

10. Crystal D. Making Sense of New Words: The Role of Word Formation in Lexical Change. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016.

11. Goatly A. Green Grammar and Grammatical Metaphor, or Language and Myth of Power, or Metaphors We Die By // The Ecolinguistics Reader: Language, Ecology and Environment / ed. by A. Fill, P. Mühlhäusler. – London; New York: Continuum, 2001. – P. 203–226.

12. Muminov A. Language Contact and Lexical Borrowing in Uzbek // Journal of Uzbek Linguistics. – 2020. – Vol. 15, No. 2. – P. 45–62.

13. Сенько Е. В. Неологизация в современном русском языке: межуровневый аспект. – СПб.: Наука, 2007. – 354 с. (Senko E. V. Neologization in modern Russian: an interlevel aspect. – Saint Petersburg: Nauka, 2007. – 354 p.)

14. Croft W. Social Evolution and Language Change. – Manchester: University of Manchester, 2007.

15. Shamne N. L., Pavlova E. B. Institutional, Genre and Discursive Characteristics of British Restaurant Online Discourse // Advances in Social Science, Education and Humanities Research. – 2017. – Vol. 97. – P. 214–220.